

**SIRDARYO VILOYATIDAGI
KORXONA VA TASHKILOTLAR
DEMOGRAFIYASI BO‘YICHA MA‘LUMOT**
*2020-yil 1-dekabr holatiga ko‘ra
(fermer va dehqon xo‘jaliklaridan tashqari)*



O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2012-yil 25-sentabrdagi “Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri to‘g‘risidagi Nizomni tasdiqlash haqida”gi 274-son qaroriga muvofiq korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri bazasi yuritiladi.

Mamlakatimizda oxirgi yillarda tadbirkorlik subyektlariga ko'rsatilayotgan e'tibor

Tadbirkorlik subyektlari iqtisodiyotni rivojlantirish, aholi bandligi va daromadlarini oshirishda muhim omildir. Ushbu soha vakillarini har tomonlama qo'llab-quvvatlash maqsadida, oxirgi yillarda Prezidentimizning ko'plab farmon va qarorlari qabul qilindi.

Jumladan, tadbirkorlik faoliyatini davlat ro'yxatidan o'tkazish, turli ruxsatnomalar olish va boshqa ko'plab xizmatlar tartib-qoidalari soddalashtirildi. Bu borada qulaylik yaratish uchun Davlat xizmatlari agentligi va uning joylardagi markazlari tashkil etildi. Tadbirkorlik subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish bo'yicha vakil (Biznes-ombudsman) devoni tashkil qilindi.

Barcha hududlarda tadbirkorlar murojaatlarini qabul qilib, hal etishga ko'maklashadigan Bosh vazir qabulxonalari tashkil etildi. Vazirlar Mahkamasi huzurida Tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishni qo'llab-quvvatlash davlat jamg'armasi faoliyati yo'lga qo'yildi. Tijorat banklari tomonidan tadbirkorlarga ajratilayotgan kreditlar hajmi oshdi.

Oxirgi yillarda hukumatimiz tomonidan tadbirkorlik subyektlarining faoliyatini yanada rivojlantirish va barqaror faoliyat ko'rsatishini ta'minlash maqsadida yaratib berilayotgan shart-sharoitlar va qulayliklar natijasida faoliyat ko'rsatayotgan hamda yangi tashkil etilayotgan korxonalar va tashkilotlar soni yildan-yilga sezilarli ravishda oshib bormoqda.

Korxonalar va tashkilotlar to'g'risidagi mazkur ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Davlat xizmatlari agentligi ma'lumotlar bazasi asosida, 2020-yil 1-dekabr holatiga ko'ra (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) shakllantirildi.

Ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlar soni

(1-dekabr holatiga ko'ra, birlikda)



Mamlakatimizda qulay ishbiarmonlik muhitini yaratish va tadbirkorlikni jadal rivojlantirish borasida qator ijobiy o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. O'z o'rnida, tadbirkorlik subyektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yish borasida ham qonunchilikda muhim qarorlar qabul qilinib, davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yishni avtomatlashtirilgan tizimi bosqichma-bosqich ishlab chiqilib, amaliyotga tadbiiq qilinmoqda. Bu esa aholi hamda xorijiy investorlarning o'z shaxsiy biznesini yo'lga qo'yish va rivojlantirish uchun muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda.

Korxonalar va tashkilotlar soni

(2020-yil 1-dekabr holatiga ko'ra, birlikda)



Ro'yxatdan o'tgan korxonalar

16 310
122,4 %



Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar

15 300
122,1 %



Yangi tashkil etilgan korxonalar (2020-yilda)

2 815
109,4 %

Yuridik shaxs:

Yuritishida yoki operativ boshqaruvida alohida mol-mulkka ega bo'lgan hamda o'z majburiyatlari yuzasidan ushbu mol-mulk bilan javob beradigan, o'z nomidan mulkiy yoki shaxsiy nomulkiy huquqlarga ega bo'la oladigan va ularni amalga oshira oladigan, majburiyatlarni bajara oladigan, sudda da'vogar va javobgar bo'la oladigan tashkilot **yuridik shaxs** hisoblanadi.

Ro'yxatdan o'tgan tijorat korxonalari soni

(tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha 2020-yil 1-dekabr holatiga ko'ra, birlikda)

10 193




Mas'uliyati cheklangan jamiyat

366



Oilaviy korxonona

124



Unitar korxonona

3 232



Xususiy korxonona

26




Aksiyadorlik jamiyati

278




Boshqa korxonalar

Mas'uliyati cheklangan jamiyat
birlik



Xususiy korxonona
birlik




Mas'uliyati cheklangan jamiyat


Bir yoki bir necha shaxs tomonidan ta'sis etilgan, ustav fondi (ustav kapitali) ta'xis hujjatlari bilan belgilangan miqdorda ulushlarga bo'lingan xo'jalik jamiyati mas'uliyati cheklangan jamiyat deb hisoblanadi. Mas'uliyati cheklangan jamiyatning ishtirokchilari uning majburiyatlari bo'yicha javobgar bo'lmaydilar va jamiyat faoliyati bilan bog'liq zararlar uchun o'zlari qo'shgan hissalar qiymati doirasida javobgar bo'ladilar.

Mas'uliyati cheklangan jamiyatning o'z hissasini to'la qo'shmagani, ishtirokchilari jamiyat majburiyatlari bo'yicha har bir ishtirokchi hissasining to'lanmagan qismi qiymati doirasida solidar javobgar bo'ladilar.

Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni (1-dekabr holatiga ko'ra)



Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni (iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1-dekabr holatiga ko'ra, birlikda)



Faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalari soni

(tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha 2020-yil 1-dekabr holatiga ko'ra, birlikda)



Aksiyadorlik jamiyati:

Ustav fondi muayyan aksiyalar soniga bo'lingan jamiyat aksiyadorlik jamiyati hisoblanadi;


aksiyadorlik jamiyatining ishtirokchilari (aksiyadorlar) uning majburiyatlari bo'yicha javob bermaydilar va jamiyat faoliyati bilan bog'liq zarar uchun o'zlariga qarashli aksiyalar qiymati doirasida javobgar bo'ladilar.

Aksiyalar haqini batamom to'lamagan aksiyadorlar, aksiyadorlik jamiyatining majburiyatlari bo'yicha, o'zlariga qarashli aksiyalar qiymatining to'lanmagan qismi doirasida solidar javobgar bo'ladilar.


Aksiyadorlik jamiyatining firma nomida, jamiyatning nomi hamda bu jamiyat aksiyadorlik jamiyati ekanligi o'z ifodasini topishi kerak.

Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar soni


(yanvar- noyabr oylarida, birlikda)



Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar soni (iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha, yanvar-noyabr oylarida)




Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha tarkibi (2020-yil yanvar-noyabr oylarida, umumiy sonidagi ulushi)



2020-yilning yanvar-noyabr oylarida 2 815 ta korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etildi. Shundan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar– 2 382 ta, xususiy korxonalar– 144 ta, oilaviy korxonalar– 162 ta, muassasalar– 31 ta va boshqalar– 96 tani tashkil etdi.

Oilaviy korxonalar soni (1-dekabr holatiga ko'ra, birlikda)



Tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha ro'yxatdan o'tgan oilaviy korxonalar soni 2020-yilning 1-dekabr holatiga ko'ra 366 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 180 taga yoki 297,8 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalar soni 319 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 146 taga yoki 184,4 % ga oshganligini ko'rish mumkin.


2020-yil yanvar-noyabr oylarida yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalar soni 162 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 66 taga yoki 168,7 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

Mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni (1-dekabr holatiga ko'ra, birlikda)


Tashkiliy huquqiy shakli bo'yicha ro'yxatdan o'tgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 2020-yilning 1-dekabr holatiga ko'ra 10 193 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 2 718 taga yoki 36,4 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

Faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 9 609 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 2 544 taga yoki 36,0 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

2020-yil yanvar-noyabr oylarida yangi tashkil etilgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 2 382 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 292 taga yoki 14,0 % ga ko'payganligini ko'rish mumkin.




Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar va tashkilotlar soni (2020-yil 1-dekabr holatiga ko'ra, birlikda)



Ro'yxatdan o'tgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar va tashkilotlar soni 2020-yil 1-dekabr holatiga ko'ra 191 tani tashkil etib, ulardan 187 tasi yoki 97,9 % faoliyat ko'rsatmoqda. Bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan olganda 30 taga yoki 118,6 % ga oshganligini ko'rish mumkin.


2020-yil yanvar-noyabr oylarida viloyatimizda 23 ta xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etildi.

Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni (iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yanvar-noyabr oylarida, birlikda)




Kichik tadbirkorlik subyektlari soni

(2020-yil 1- dekabr holatiga ko'ra, birlikda)




Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni

(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1-dekabr holatiga ko'ra, birlikda)



Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni

(1-dekabr holatiga ko'ra, birlikda)



Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni

(1-dekabr holatiga ko'ra, birlikda)

	2016-yil	2017-yil	2018-yil	2019-yil	2020-yil
Jami	66	84	106	157	187
<i>shu jumladan:</i>					
Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	4	4	8	10	16
Sanoat	49	62	74	103	117
Qurilish	1	3	6	8	11
Savdo	6	9	10	23	27
Tashish va saqlash	2	3	3	6	4
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	-	-	1	1	2
Axborot va aloqa	-	-	-	2	2
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	-	-	-	-	-
Boshqa turlar	4	3	4	4	8


Faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni (1-dekabr holatiga ko'ra, birlikda)



Faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni (1-dekabr holatiga ko'ra, birlikda)

	2016- yil	2017- yil	2018- yil	2019- yil	2020- yil
Jami	3 521	4 317	5 177	7 065	9 609
<i>shu jumladan:</i>					
Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	546	691	846	1 091	1 533
Sanoat	531	695	829	1 177	1 498
Qurilish	339	442	615	938	1 115
Savdo	1 184	1 361	1 579	2 189	3 418
Tashish va saqlash	384	444	464	469	516
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	127	193	246	456	568
Axborot va aloqa	65	67	63	74	102
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	25	24	34	53	83
Boshqa turlar	320	400	501	618	776

Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalar soni (1-dekabr holatiga ko'ra, birlikda)



Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni (1-dekabr holatiga ko'ra, birlikda)


	2017-yil	2018-yil	2019-yil	2020-yil
Jami	61	88	173	319
<i>shu jumladan:</i>				
Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	10	8	32	62
Sanoat	28	38	79	136
Qurilish	-	-	-	2
Savdo	12	16	25	50
Tashish va saqlash	-	1	2	1
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	5	19	27	50
Axborot va aloqa	1	1	1	2
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	-	-	-	-
Boshqa turlar	5	5	7	16

**O‘zbekiston Respublikasida MDH davlatlarining kapitali
ishtirokida faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar soni**
(2020-yil 1- dekabr holatiga ko‘ra, birlikda)

	Jami	<i>shundan:</i>	
		qo‘shma korxonalar	xorijiy korxonalar
Rossiya Federatsiyasi	31	20	11
Qozog‘iston Respublikasi	16	12	4
Ozarbayjon Respublikasi	4	3	1
Qirg‘iziston Respublikasi	3	2	1
Tojikiston Respublikasi	8	5	3
Ukraina Respublikasi	1	1	-
Belarus Respublikasi	3	3	-


Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarining davlatlar kesimida soni

(2020-yil 1-dekabr holatiga ko'ra, birlikda)



Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni

(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1-dekabr holatiga ko'ra, birlikda)




Hududlar kesimida xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni (2020-yil 1-dekabr holatiga ko'ra, birlikda)

	Jami	shundan:	
		qo'shma korxonalar	xorijiy korxonalar
Sirdaryo viloyati	187	123	64
Guliston sh.	44	29	15
Shirin sh.	5	5	-
Yangiyer sh.	22	9	13
Oqoltin	4	1	3
Boyovut	8	4	4
Sayxunobod	13	8	5
Guliston	5	4	1
Sardoba	10	7	3
Mirzaobod	12	7	5
Sirdaryo	54	44	10
Xovos	10	5	5

Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarning asosiy qismi Sirdaryo tumanida 54 ta (umumiy miqdoridagi ulushi 28,9 %), Guliston shahrida 44 ta (23,5 %), Yangiyer shahrida 22 ta (11,8%), Sayxunobod tumanida 13 ta (7,0 %) hamda Mirzaobod tumanida 12 tani (6,4 %) tashkil etadi.

Ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlarning hududlar bo'yicha soni

(2020-yil 1-dekabr holatiga ko'ra, birlikda)




2020-yil 1-dekabr holatiga ko'ra ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlar hududlar kesimida taqsimlanganda ularning ulushi Guliston shahri (28,7 %), Sirdaryo (14,3 %), Sayxunobod (8,0 %), Boyovut (8,0 %), Guliston (7,4 %), Mirzaobod (8,2 %), Yangiyer shahri (7,0 %), Oqoltin (5,5 %), Xovos (5,4 %), Sardoba (4,9 %), Shirin shahri (2,5 %) hissalariga to'g'ri keladi.

Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning hududlar bo'yicha soni


(2020-yil yanvar-noyabr oylarida, birlikda)

2020-yil yanvar-noyabr oylarida yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar hududlar kesimida taqsimlanganda, ularning soni Guliston shahri (22,2 %), Sirdaryo (11,5 %), Sayxunobod (8,2 %), Boyovut (9,2 %), Guliston (6,5 %), Mirzaobod (10,1 %), Yangiyer shahri (5,8 %), Oqoltin (8,7 %), Xovos (6,6 %), Sardoba (8,0 %), Shirin shahri (3,2 %) hissalariga to'g'ri keladi.




Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarining hududlar kesimidagi soni

(2020-yil 1-dekabr holatiga ko'ra, birlikda)



Faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlarning hududlar kesimidagi soni


(2020-yil 1-dekabr holatiga ko'ra, birlikda)



2020-yil 1-dekabr holatiga ko'ra faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar hududlar kesimida taqsimlanganda ularning ulushi, Guliston shahri (25,4 %), Sirdaryo tumani (16,5 %), Sayxunobod (8,2 %), Boyovut (7,2 %), Guliston (6,7 %), Mirzaobod (8,7 %), Yangiyer shahri (8,3 %), Oqoltin (5,4 %), Xovos tumani (5,9 %), Sardoba (5,2 %), Shirin shahri (2,4 %) hissalariga to'g'ri keladi.

Hududlar kesimida jami xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining qo'shma korxonalar va xorijiy korxonalar taqsimlanishi


(2020-yil 1- dekabr holatiga ko'ra, jamiga nisbatan ulushi, % da)



2017-2021-yillarda rivojlanishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha "Harakatlar strategiyasi"ning uchinchi muhim yo'nalishi - xalqaro iqtisodiy hamkorlikni yanada rivojlantirish hisoblanadi. Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar sonini o'sib borishi, eng avvalo, mamlakatdagi siyosiy barqarorlik va investitsiya faoliyatining qonuniy asoslari takomillashib borayotgani bilan izohlanadi.

Yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalarining hududlar bo'yicha soni


(2020-yilning yanvar-noyabr oylarida, birlikda)




2020-yilning yanvar-noyabr oylarida yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalar, hududlar kesimida taqsimlanganda Guliston shahri (9,3 %), Sirdaryo (12,3 %), Boyovut (4,9%), Guliston (11,1 %), Mirzaobod (5,6 %), Yangiyer shahri (1,9 %), Oqoltin (45,7 %), Sardoba (0,6 %), Xovos (6,2 %), Shirin shahri (1,9 %), Sayxunobod (0,6 %) ulushga ega.

Hududlar kesimida yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni

(2020-yilning yanvar-noyabr oylarida, birlikda)



O'tgan yilga nisbatan, % da



Statistik ko'rsatkichlarga izohlar

Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri – axborot-ma'lumotnoma tusidagi, vaqti-vaqti bilan yangilab boriladigan ma'lumotlardan iborat bo'lgan avtomatlashtirilgan tizim hisoblanadi hamda yagona klassifikatsiyalar tizimi asosida korxonalar va tashkilotlarning davlat hisobini va ularni identifikatsiyalashtirishni ta'minlaydi.

Ro'yxatga olingan korxonalar va tashkilotlar – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda yuridik shaxslarning davlat reestrda mavjud bo'lgan yuridik shaxslar (faoliyati tugatilgan yuridik shaxslardan tashqari).

Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda davlat statistika organlariga moliya-xo'jalik faoliyatini amalga oshirmayotganligi yoki tugatish jarayonida ekanligi to'g'risidagi ma'lumot kelib tushmagan yuridik shaxslar.

Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda yuridik shaxslarning davlat reestriga yangidan kiritilgan yuridik shaxslar.

Kichik korxonalar va mikrofirmalar – O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016-yil 24-avgustdagi "Iqtisodiy faoliyat turlarini tasniflashning xalqaro tizimiga o'tish chora-tadbirlari to'g'risida" 275-sonli qarorining 1-ilovasiga muvofiq kichik tadbirkorlik subyektlariga ajratiladi.

Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri

The screenshot displays the official website of the State Statistical Committee of the Republic of Uzbekistan. The main header features the national emblem and the text 'O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI DAVLAT STATISTIKA QO'MITASI'. Below the header, there is a navigation menu with options like 'ASOSIY SAHIFA', 'QO'MITA HAQIDA', 'AXBOROT XIZMATI', 'INTERAKTIV XIZMATLAR', 'OCHIQ MA'LUMOTLAR', 'MUHOJATLAR', and 'KONTAKTLAR'. The main content area is divided into three columns. The left column, titled 'RASMIY STATISTIKA', lists various statistical services. The middle column shows a form for 'Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri' (STIR) with a dropdown menu for 'Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri' and a 'Qidiruv' button. The right column, titled 'FOYDALI MA'LUMOTLAR', lists useful information such as 'Aholini ro'yxatga olish-2022', 'Harakatlar strategiyasi', 'Press-relijar', 'Choraklik natijalar', 'Nashrlar - statistika haqida', 'Uslubiy materiallar', and 'Sanoat mahsulotlari ishlab chiqaruvchilar'.

Tashqi foydalanuvchilar, bevosita Davlat statistika qo'mitasining www.stat.uz rasmiy saytida real vaqt rejimida, so'ralayotgan yuridik shaxsning (STIR) kodini kiritib, axborotlarni bepul olishlari mumkinligi belgilab qo'yilgan.

**Statistik registrlarni
yuritish bo'limi
Tel.:(67)236-86-37**